

## Mirzo Ulugʻbek Buyuk Temuriy Hukmdor

*Sobirov Jamshidbek<sup>1</sup>*

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada buyuk Sohibqiron Amir Temurning nabirasi, yetuk olim, adolatli hukmdor, ilm - fan rahnamosi hisoblanmish Mirzo Ulugʻbek haqida uning tavalludi hamda faoliyati haqida soʻz yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** Mirzo Ulugʻbek, Sohibqiron, "Zafarnoma", Tus, Xabushon, Kalot, Bovard, Naso, Yozir, Sabzavor, Nishopur.

Mirzo Ulugʻbek Sohibqironning "besh yillik yurish"ida (1392-1396) Iroqdagi Mordin qal'asini qamal qilish chogʻida tugʻilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulugʻbekning tugʻilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor boʻlishini bashorat qilganlari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal'asi qamalini toʻxtatib, uning xalqiga yuklangan toʻlovni bekor qiladi. Uning oʻz 8 nabirasiga Muhammad Taragʻay Ulugʻbek deb ism qoʻyganini ham munajjimlarning yuqoridagi bashorati bilan bogʻlash mumkin. Amir Temur Ulugʻbekning tarbiyasiga alohida eʼtibor bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan. Klavixonning qayd etishicha, Ulugʻbek bobosining xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan. 1404 yil Konigilda oʻtkazilgan tantanalarda Amir Temur oltita nabirasining (jumladan, Ulugʻbekning) nikoh toʻylarini oʻtkazgan. Toʻyda Sohibqiron Ulugʻbekka Toshkent, Sayram, Yangi (hozirgi Taroz), Ashpara va Moʻgʻulistonni toʻ Xitoy hududigacha suygʻol qilib bergan. Amir Temur Oʻtrorda vafot etgan chogʻda Ulugʻbek ham oʻsha yerda boʻlgan. (Temuriylar oʻrtasida toju taxt uchun kurash boshlangan. Oʻtrordan qaytgan Shohruh farzandlari — Ulugʻbek va Ibrohim Sultonni amirlar Samarqandga kiritmaydilar, ular Buxorodan panoj topishgan. Samarqand taxtini Halil Sulton egallagan. Xurosonni boshqarib turgan Shohruh Ulugʻbekka dastlab Andxoʻy bilan Shibirgʻonni, keyinchalik Xurosonning Tus, Xabushon, Kalot, Bovard, Naso, Yozir, Sabzavor va Nishopurdan iborat qismini boshqarishni topshirgan. 1410 yil Shohruh Movarounnahrni oʻz tasarrufiga kiritgach, uni idora etishni Turkiston viloyati bilan birga Ulugʻbekka topshirib, sohibqiron vasiyatini qayta tiklagan. Ulugʻbek yosh (15 yosh) boʻlgani sababli amir Shohmalik unga homiy etib belgilangan. Lekin Shohmalikning raqibi — Oʻtrordagi Shayx Nuriddin va Muhammad Jahongirning Hisordagi valiyolari 1410 yil bahorida Ulugʻbek va Shohmalikka qarshi chiqqanlar. Shu yilning yozida Shohruh ishtirokida boʻlgan jangda Shohmalik va Ulugʻbek gʻalaba qilganlar. 1411 yil sentyabrda Shohruh Samarqandga kelib, Shohmalikni oʻzi bilan Hirotga olib ketgan va keyinchalik Xorazmga hokim qilib yuborgan (1413). Shu vaqtdan boshlab Ulugʻbek Movarounnahrni mustaqil idora etishga kirishgan. Shohruh Movarounnahrda boshqa temuriy shahzodalarga ham mulk ajratgan edi. Chunonchi, Hisori Shodmonni Muhammad Sultonning oʻgʻli Muhammad Jahongirmirzoga, Oʻzgand viloyatini Umarshayxning oʻgʻli Amirak 9 Ahmadga suygʻol qilgan edi. Biroq ular Ulugʻbekka tobe edilar. 1414-1415 yillar ular oʻrtasida ixtilof chiqib, Ulugʻbek Amirak Ahmad ustiga qoʻshin tortgan va uni yenggan. Shohruh Amirak Ahmadni Xurosonga chaqirtirib olgan; Qashgʻar ham to 1428 yilgacha Ulugʻbekka tegishli boʻlgan. Ulugʻbek oʻz hukmronligi davomida 2 marta yirik harbiy yurish qilgan. Birinchisida 1425 yil Moʻgʻuliston xoni Shermuhammad oʻgʻlon (1421—25) oʻzini mustaqil xon deb eʼlon qilganda, Ulugʻbek unga qarshi yurish qilib zafar qozongan. U.ning ikkinchi yurishi Sigʻnoq shahri tomon boʻlgan. Sirdaryoning quyi havzasi Ulugʻbek tasarrufida edi. Ulugʻbek 1427 yil Sigʻnoq yaqinida uning mulkiga tahdid qilgan Baroq oʻgʻlon bilan toʻqnashgan va magʻlubiyatga uchragan. Dushman Ulugʻbekni taʼqib qilib, Samarqand ostonalarigacha kelgan. Movarounnahr xavf ostida qolganligi tufayli Shohruh Xurosondan katta lashkar tortib kelib xavfni bartaraf etadi. Shohruh vafoti (12 mart 1447 yil)dan keyin Ulugʻbekning katta oʻgʻli Abdullatif voris sifatida (Temuriylar hukmdori boʻlib qoladi. Lekin Shohruhning qattiqqoʻl xotini Gavharshodbegim bu haqda oʻz fikriga ega edi. U Shohruh davrida (Temuriylarning poytaxti boʻlib qolgan Hirot taxtiga marhumning uchinchi oʻgʻli boʻlmish Boysungʻur mirzoning oʻgʻli va suyuqli nabirasi Alouddavlamirzoni oʻtkazish tarafdori edi. Gavharshodbegim Hirot taxtiga Alouddavlani oʻtkazganini Ulugʻbekka nisbatan isyon deb qaralmogʻi kerak edi. Shuning uchun Ulugʻbekka 1448 yil bahorida Abdullatif bilan birgalikda 90 ming askar bilan Xurosonga kelib, Hirot yaqinida boʻlgan jangda Alouddavlani tormor qiladi. Gʻalaba Abdullatifning shaxsiy shijoati va lashkarboshilik isteʼdodi tufayli erishilgan boʻlsa ham, Ulugʻbek fathnomani kichik oʻgʻli Abdulaziz nomidan eʼlon qiladi. Undan tashqari, bobosi Shohruh tomonidan Abdullatifga vasiyat qilingan Hirotidagi Ixtiyoriddin qal'asi va uning ichidagi boyliklarini ham Ulugʻbek Abdulazizga beradi. Shundan soʻng Ulugʻbek bilan Abdullatif oʻrtasidagi munosabat ochiq dushmanlik tusini oladi. 10 Ulugʻbek Samarqandda Abdulazizni qoldirib, lashkar bilan katta oʻgʻliga qarshi jangga yuradi. Abdullatif ham oʻz lashkari bilan Amudaryo yoqasiga kelib turadi. Ikkala lashkar ham daryoning 2 sohilida uzoq muddat turib, suvni kechib oʻtishga botinmaydi. Bu orada Ulugʻbek, Abdulaziz lashkardagi amirlarning oilalarini taʼqib etayotir, — degan xabarni eshitib, Samarqandga qaytib kelishga majbur boʻladi va shahar aholisining Abdulazizga qarshi isyon koʻtarganining guvohi boʻladi. Tezda shaharni tartibga keltirib, yana Abdullatifga qarshi jangga yoʻllanadi, lekin Samarqand yaqinida undan magʻlubiyatga uchraydi. Oradan koʻp oʻtmay, Ulugʻbek Abdullatif buyrugʻi bilan qatl etiladi. Uning jasadi Goʻri Amir maqbarasiga dafn etilgan (qadimgi Amir Temur

<sup>1</sup> Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

maqbarasi). Ulugʻbek otasi Shohruh davrida siyosiy hukmdor sifatida ichki va tashqi siyosat bobida birmuncha mustaqil boʻlgan. Boshqa davlatlar bilan bevosita savdo va elchilik munosabatlari olib borgan. Ulugʻbek davrida Samarqand shahrida yanada ravnaq topgan. Shaharda hunarmandchilik, me'morlik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksaldi, savdo taraqqiy etdi. Buxoroda (1417), Samarqandda (1420), Gʻijduvonda (1432-1433) madrasalar va Marvda xayriya muassasalari qurildi. Madrasalarda diniy fanlar bilan birga dunyoviy fanlar ham oʻqitildi, koʻproq aniq fanlarga ahamiyat berildi. Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohizinda va Registon majmualari qurilishlari poyoniga yetkazildi. Bundan tashqari, mamlakatda koʻplab jamoat inshootlari (karvonsaroy), tim, chorsu, hammomlar va boshqa ham bunyod etilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.Ahmedov. Ulugʻbek (Esse). T., 1989
2. A.Muhammadjonov. Temur va temuriylar saltanati. Tarixiy ocherk. T., 1996
3. B.Shalotonin. Gorod na beregu Zarafshana. «Kizilkum», 1999
4. F.Qosimov. Temuriylar davrida Buxoro. Buxoro, 1996
5. Mirzo Ulugʻbek. Toʻrt ulus tarixi. T., «Choʻlpon» nashriyoti, 1993
6. T. S. Saidqulov “Oʻrta Osiyo tarixining tarixshunosligidan lavhalar”, Toshkent “Oʻqituvchi” nashriyoti 1993.